



“O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi Qonunning mazmun-mohiyati (O‘RQ-666-son, 14.01.2021 y.)

O‘RQ-666-son Qonuni bilan 11 ta qonunlar va 3 ta kodekslarga o‘zgartirishlar kiritildi.

I. O‘RQ-666-son Qonuni bilan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksga quyidagi qo‘shimchalar kiritildi:

Unga ko‘ra,

1) Adliya organlarining bajarilishi majburiy bo‘lgan **taqdimnomalarini** bajarmagan, shu jumladan **o‘z vaqtida yoki to‘liq bajarmagan mansabdor shaxslarga** BHMning 5 baravarigacha jarima solinishi mumkin. Ushbu huquqbuzarlik takror sodir etilgan taqdirda mansabdor shaxslarga BHMning 7 baravarigacha jarima solinishi mumkin.

2) Davlat aktivlarini boshqarish agentligi organlarining davlat mulki ob'ektlari, xorijdagi davlat mulki ob'ektlari to‘g‘risidagi ma'lumotlarni kiritish haqidagi **taqdimnomalarini bajarmagan yoki ma'lumotlarning to‘liqligini ta'minlamagan** mansabdor shaxslarga BHMning 5 baravarigacha jarima solinishi mumkin. Ushbu huquqbuzarlik takror sodir etilgan taqdirda mansabdor shaxslarga BHMning 10 baravarigacha jarima solinishi mumkin.

3) **Davlat xaridlari to‘g‘risidagi qonunchilikni** buzgan mansabdor shaxslarga BHMning 5 baravaridan 20 baravarigacha jarima solinishi mumkin.

II. O‘RQ-666-son Qonuni bilan “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra mahalliy Kengashlarning noqonuniy qarorlari **Oliy Majlis Senati tomonidan bekor qilinadi** (ilgari Oliy Majlisi tomonidan bekor qilingan).

III. O‘RQ-666-son Qonuni bilan “O‘simliklar karantini to‘g‘risida”gi Qonunga kiritilgan o‘zgartirishga ko‘ra fitosanitariya talablari Adliya vazirligida **huquqiy ekspertizadan o‘tkaziladi** va ijobiy xulosa olinganidan keyin hisobga qo‘yiladi.

Avazjon ERGAShev,

jinoyat ishlari bo‘yicha Qo‘shitepa tuman sudining raisi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook,](#)

2021-02-18 08:46:05